

XITOIY TILIDA TOPISHMOQ VA RIVOYATLI TOPISHMOQLAR TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653504>

Quliyeva Durdona Asliddinovna

Samarqand davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi, ilmiy rahbar

Niginabonu Jurabekovna Vaxabova

Samarqand davlat chet tillari instituti,

Sharq tillari fakulteti, filologiya va tillarni

o‘qitish (xitoy tili) yo‘nalishi talabasi

niginabonu_99@icloud.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola hozirgi xitoy tilida topishmoqlarning ifodalanishiga qaratilgan bo‘lib, jumboqli matnlarning kelib chiqish tarixi va ularning turlarga bo‘linishi haqida o‘rganilgan. Shunning bilan birga, maqolada xitoy topishmoqlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi. Topishmoqlarning semantik-funksional tuzilishi va struktur tuzilishi o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, rivoyatli topishmoq, yasalish va javobni aniqlash metodlari.

ABSTRACT

This article focuses on the expression of riddles in modern Chinese and explores the history of the origin of puzzle texts and their classification. At the same time, the article discusses the formation and development stages of Chinese riddles. The semantic-functional structure and structural structure of puzzles are studied.

Keywords: riddles, narrative riddles, construction and answer methods.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется выражению загадок в современном китайском языке, а также исследуется история происхождения текстов-загадок и их классификация. В то же время в статье рассматриваются этапы становления и развития китайских загадок. Изучена семантико-функциональная структура и структурная структура головоломок.

Ключевые слова: загадки, сюжетные загадки, способы построения и решения.

KIRISH

Har bir xalq o‘zining xalq og‘zaki ijodiga ega bo‘lib, ular o‘z navbatida bir necha turga bo‘linadi. Xitoy folklorida keng uchraydigan topishmoq va rivoyatli topishmoqlar tarixi bundan 3500 yil oldingi vaqtga borib taqaladi. Yozma va og‘zaki adabiyot rivojlangani sari, topishmoqlar ham xalq orasida keng tarqalib borgan. Ma‘lum davrga kelib esa, topishmoqlarni ilm-fan darajasiga chiqarishgan.

Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odatlarini yoritilib berilgani uchun, asosan, oddiy xalq tomonidan tez-tez foydalanilgan. Boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi adolatsizlik o‘sha davrlarda topishmoqlar orqali ifodalab berilgan.

Topishmoqlar xitoy xalqining rivojlangan folklor janrlaridan biri hisoblanib, tuzilishi va ma‘no jihatidan bir necha turlarga bo‘lingan. Yozma adabiyotda ham, topishmoqlardan tez-tez foydalanilgan bu esa, o‘z navbatida, asarning yanada chuqur mazmunga ega bo‘lishini ta‘minlagan. Xitoyda topishmoq janri Min va Sun sulolalari davrida rivojlangan hamda shu davr oralig‘ida topishmoqlar soni ortib borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xitoyda topishmoq janrining o‘rganilishi XX asrning 10-30-yillari davrida bo‘ldi, bunda nafaqat xalq og‘zaki ijodidan yig‘ilgan topishmoqlar to‘plami yaratildi balki, topishmoqlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan kitoblar ham yozildi. Topishmoqlarning tuzilishiga ko‘ra, ko‘p usuldagi turlari yaratildi. 1908-yilda “谜话” (“Topishmoq”) kitobi nashr qilindi. Xitoy adabiyotida topishmoq bo‘yicha mutaxassis 张 Zhang qalamiga mansub “橐园春灯话” Tuó yuán chūn dēng huà (“Bahor payti bog‘da taqillagan ovoz”) kitobi ommaga taqdim etildi.

Topishmoqlarning tarixi, ularning kelib chiqishi haqida ham kitoblar nashr etilgan, xususan, 1928-yilda Xitoyning janubiy qismi “Topishmoqlar tarixi kitobi” chop etildi. 陈光 Chén guāng tomonidan “Topishmoqlarni o‘rganish” kitobi xitoy tilida (“谜语研究” Míyǔ yánjiū) nashr etildi. Ushbu asar xitoy tilidagi topishmoqlarni aniqlovchi vazifasini bajarishini, xitoy tarixini rivojlantirishini bayon etib o‘tgan.

Xitoyda topishmoqlar rivojlanishining yangi bosqichi XX asrning 80-yillaridan boshlandi. Bunga asosiy sabab, reformaning o‘zgarishi insonlarning fikrlashiga turtki bo‘lganligidir. O‘tgan asrlarda topishmoqqa oid bir nechta umumiy jamlanma kitoblar nashr etilgan bo‘lsa, endilikda ya‘ni 1989-yilda “实用灯谜小辞典” (Shíyòng dēngmí xiǎo cídiǎn) “Amaliy topishmoqlar to‘plami” asari yaratildi va ilk bor xitoy topishmoqlar tarixida ilmiy kitob bilan topishmoqlar birlashtirildi. Bu yillarda topishmoqlarga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borildi sababi, yildan-yilga topishmoqchilik sohasiga qiziquvchilar soni ortib bordi.

Hozirgi davrga kelib topishmoqlarning rang-barang turlari mavjud bo‘lib, xitoy topishmoqlarining eng keng tarqalgan turlaridan biri bu, iyerogliflarga yashiringan jumboqli matnlar hisoblanadi. Bunday topishmoq turlarida, asosan, iyeroglif yasovchi tayoqchalar “bi hua” (笔画)larga yoki iyeroglif kalitlariga jumboq javobi yashirilgan bo‘ladi.

Quyida bir necha misollarni ko‘rib o‘tsak:

1. “池中沒有水” Chí zhōng méiyǒu shuǐ Ushbu topishmoqning javobini topish uchun uni tarjima qilib olamiz. Ko‘lmakda suv yo‘q deb tarjima qilsak va ko‘lmak “池” so‘zidan “三点水”(san dian shui) uch tomchi suv kalitini olib tashlasak, topishmoqning javobini topgan bo‘lamiz. Ya‘ni, javob “也”(ye) iyeroglifi ekan.

2. “措手不及” Cuòshǒubùjí. Bu topishmoqning javobini topish uchun esa, chap tomonda berilgan “提手旁”(ti shou pang) qo‘l kalitini tushurib qoldiramiz, shunda javob “昔”(xi) iyeroglifi bo‘ladi.

Xitoy adabiyotida hozirgi kunda topishmoqlarning ko‘p turlari tarqalib borishi bilan ularning javobini topish usullari ham bir nechani tashkil etadi.

1. “会意法” Huìyì fǎ tushuntirishsiz topishmoq javobini topish usuli. Masalan, “脸上带钩子，头脚挂扇子。四根粗住子，一条小辫子。” Liǎn shàng dài gōuzi, tóu jiǎo guà shànzi. Sì gēn cū zhùzi, yītiáo xiǎo biànzi. Ushbu topishmoqda bir hayvonning tana a‘zolari haqida aytilgan bo‘lib, o‘g‘iz, yelpig‘ich, uzun dum kabi so‘zlar keltirilgan. Mana shu so‘zlardan kelib chiqib javobni aniqlasak bo‘ladi. Topishmoq javobi: fil-大象(da xiang).

2. “加法” Jiāfǎ qo‘shish usuli orqali topishmoq javobini topsak bo‘ladi. Bunday usulda asosan, iyerogliflarni bir-biriga qo‘shish orqali javob aniqlanadi. Misol uchun, “一加一不是二”。 Yī jiā yī bùshì èr . Topishmoqning javobi : 王(wang) qirol.

3. “比较法” Bǐjiào fǎ qiyoslash usuli bilan topishmoq javobi topiladi. Bu usulda topiladigan topishmoqlar tarkibi antonym so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, “一边白，一边黄。一边柔，一边刚。一边保暖，一边凉” Yībiān bái, yībiān huáng. Yībiān róu, yībiān gāng. Yībiān bǎonuǎn, yībiān liáng. Bir tomoni oq, bir tomoni sariq, bir tomoni kesilgan, bir tomoni isitadi, bir tomoni sovutadi. Javobi: 锦(jin) —kapron.

Topishmoq va boshqotirma. Bu ikki so‘z bir-biriga o‘xshab ketsa-da, ularning farqli tomonlari mavjud. 谜语(miyu) topishmoq oddiy xalq tomonidan soda tuzilgan

bo‘lib, unda so‘zlar faqat bir ma‘noda ishlatiladi. Masalan, “兄弟七八个，围着柱子座，大家一分手，衣服都扯破” Xiōngdì qībā gè, wéizhe zhùzi zuò, dàjiā yì fēnshǒu, yīfú dōu chě pò. Yetti aka-uka bir cho‘ponning atrofida yig‘ilgan, biri bo‘linsa, barchasi kiyimsiz qoladi. Topishmoq javobi: 蒜(suan) sarimsoq.

灯谜(deng mi) boshqotirmaga keladigan bo‘lsak, unda keltirilgan iyerogliflar bir necha ma‘noni anglatib keladi. Yashirilgan predmet haqida to‘liq ma‘lumot beriladi, uning hajmi, rangi, ovozi, harakati tushuntirilib beriladi. Misol qilib quyidagi boshqotirmaning keltirsak bo‘ladi; “姐妹高低十八个，站在一起把话说。因为好说诸住口，诸住这个问那”。 Jiěmèi gāodī shíbā gè, zhàn zài yīqǐ bǎ huàshuō. Yīnwèi hǎoshuō zhū zhùkǒu, zhū zhù zhègè wèn nàgè. Tarjimasi: Opa singillar balandligi 18 songa teng, ular turgan holatda gaplashishadi, chunki gaplashayotganlarida o‘g‘izlarini to‘sib qo‘yishadi, to‘sishganda unisi bunisidan so‘raydi. Uning tuzilishi quyidagicha: 举目无亲(jumu wu qin) hech kimni tanimaydigan joyda paydo bo‘lib qolish. Buning ma‘nosi shunday: “个个”(gege) (2 ta ge iyeroglifi) va unga 生(sheng) iyeroglifini qo‘shsak “笙”(sheng) nay iyeroglifi hosil bo‘ladi.

Boshqotirmalar xitoy tarixidagi har bir sulola davrida turlicha nomlangan va rivojlanib borgan. Hozirgi kunda 灯谜(dengmi), 灯虎(deng hu), 春灯(chundeng) kabi nomlaridan foydalaniladi.

Boshqotirmaning tuzilishida qat‘iy qonun mavjud bo‘lib, tarkibi 3 qismga bo‘linadi. Ya‘ni, 米面(mimian)-boshlang‘ich qism; 谜目(mimu)-nechta iyeroglifdan tashkil topganlik qismi; 谜底(midi)-javob qismi. Boshlang‘ich qismi uning javobini tasvirlaydi, ba‘zida javob bilan boshlang‘ich qism o‘rin almashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoy tilida iyeroglifli topishmoqlar “字谜”(zimi) Xitoy madaniyatida va yozuvining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xitoy iyerogliflari jumboqli va qiziqarli hamda kalitlardan tashkil topganligi uchun ularning alohida o‘rni bor. Xitoyda iyeroglifli topishmoqlardan tashqari belgili topishmoqlar ham mavjud bo‘lib, ularning javobini aniqlash birmuncha murakkabdir. Topishmoqning javobini tez va oson topish uchun uning yaratilish usullarini o‘rganish kerak. Belgili topishmoqlarning tuzulish usullaridan bir nechtasini ko‘rib chiqsak.

1. Iyerogliflar yordamida tuzish;
2. Ma‘no ifodalanishiga qarab tuzish;
3. Chiziqning ifodalanishiga qarab tuzish;
4. Jonlantirib tasvirlash.

Rivoyatli topishmoqlar xitoy tilining qiziqarli ko‘rinishidir, ular hayotiylikni tasvirlaydi, metafora orqali inson aqlini charxlaydi; rasm orqali narsalarning asosini tushuntiradi. Rivoyatli topishmoqlarning kelib chiqishi qadimgi Xitoy xalqining hayotiga bog‘liq bo‘lgan, ming yillar davomida rivojlangan va Xitoy millatiga, madaniyatiga katta aql boyligi sifatida kirib keldi. Rivoyatli topishmoqlar bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularning aqlini o‘shiga yordam beradi, ularni hushmuomala, o‘yin o‘ynashga va tahlil qilishga o‘rgatadi. Quyida rivoyatli topishmoqlarga misol keltiramiz va tahlil qilamiz:

谜语故事：伍子胥与相国对谜

伍子胥，楚国人。春秋末期吴国大夫，军事家，谋略家。他第一次上朝时，刚在殿前举完千斤鼎，国君又传让相国式式他的才智。

相国领命后，沉思片刻，念道：

兄与第同性，

弟与兄同名。

兄又阴山秀，

弟有万里明。

这道诗是个字谜，原来他要伍子胥猜个字。伍子胥见相国想要考自己，便决定展示一下自己的才华。他并没有直接回答，而是笑着念了四句诗：

霜有雪没有，

箱有柜没有。

你有我没有，

立功自会有。

老相国一听，大惑不解，而伍子胥连连拱手道：“失敬！失敬！”

其实，相国与伍子胥的谜底是同一个字，都是“相”字。相国诗中所说的“兄”与“弟”分别为“木”“目”，两者合为“相”字。而伍子胥适中所说的“你”指相国，而“相国”同“霜”“箱”中都有的，就是“箱”字。

Tarjimasi: Vuzi Suy va vazir o‘rtasidagi topishmoq

Vuzi Suy Chu davlatidan edi. Kurashuvchi podsholiklar davrida Wu davlati shifokori, harbiysi va strateg olimi bo‘lgan. U birinchi marta ertalab ko‘chaga chiqqanida, og‘ir bo‘lgan temir qilichini olib chiqdi, qirol vazirning bilimini sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi. Vazir vaziyatni tushundi va o‘ylanib turib, javob berdi:

Aka va uka bir jinsda,

Uka va akaning ismi bir.

Akasining tog‘da sharpasi bor,

Ukasining yorqin kelajagi bor.

Bu to‘rt qator she‘r topishmoqdir. Avvaliga u Vuzi Suy javobini topishini aytdi. Vuzi Suy vazirni ko‘rganida o‘zicha o‘yladi, inson o‘zining qobiliyatini ko‘rsatishi kerak. U umuman javob bermadi, lekin kulib to‘rt misra she‘r o‘qiy boshladi:

Qor parchalari bor qor yo‘q,
Qutisi bor sandig‘i yo‘q.
Senda bori menda yo‘q,
Hayrli ish qilsang bo‘ladi.

Vazir bu gapni eshitib, hayron qoldi va Vuzi Suyga to‘xtamasdan qo‘lini ko‘tarib ta‘zim qildi: “Kechirasiz!” “Kechirasiz!” . Aslida vazir va Vuzi Suy topishmoqlarining javobi bitta iyeroglif. Ikkalasing javobi ham “相” Xiāng iyeroglifidir. Ma‘nosi: ministr. Vazirning she‘ridagi 兄Xiōng va “弟” Dì iyerogliflari ajraladi. 木Mù va 目Mù iyerogliflarini birlashtirsak. “相” Xiāng hosil bo‘ladi. Vuzi Suy aytgan “你” Nǐ iyeroglifi vazir so‘ziga ishora qiladi. 相国Xiāngguó yoki 霜Shuāng, 箱Xiāng hamma iyerogliflarda “xiang” mavjud.

曹操字谜试才学

曹操不仅是东汉末年的大政治家，军事家，且在文学，书法，音乐等方面，都有很高的造诣。他的几个儿子也相当有才华，尤其是曹植，更是才华出众。

有一天曹操领着曹丕，曹植骑马郊游，观赏丹凤金菊。

这天秋高气爽，蓝天一碧如洗，成群的燕子在天空中飞翔。曹操望天空，感叹不已，忽而想到：何不以此景为题，拟个字谜考考两个儿子的才学呢？

只见他沉吟片刻，是用手指着天上的燕子，吟了四句诗：

一对燕子绕天飞，
一只瘦来一只肥。
一年四季来一次，
一月里倒来三回。

曹操要两个儿子以此诗为谜面，猜一字。

曹丕苦想了很久，也没能想出这是什么字。而才思敏捷的曹植沉吟片刻后，便破了此谜。他对曹操说：“这是个”八“字。一对燕子像”八“字的一撇一

捺，瘦的是撇，肥的是捺。”一年四季来一次“，指一年中有一个”“八”月。一月里倒来三回，指每月都有初“八”十“八”和二十“八”。

曹操听后，大喜，从此对曹植更加喜爱，一度欲立曹植为世子。

Tarjimasi: Tambur topishmog‘i

Gao Shuang ismli Janub tomondagi sulolarning saroyida aqlli kuchli, hazilkash, hech kim bilan ortiqcha gaplashmaydigan va o‘ziga ishongan odam yashagan. Uning yaqin do‘sti Sun Bao ham bor edi; u semizroq beli ham o‘nta kelardi. U saroyning ya‘ni qirollikning boshlig‘i bo‘lgandan so‘ng, Gao Shuang do‘stiga e‘tiborsizroq bo‘lib qoldi. Bir kuni Gao Shuang Sun Baoni yana ko‘rishga borganida, Sun Bao unga umuman e‘tibor qilmadi va qaramadi. Gao Shuangning juda ham jahli chiqadi, eshikdan tashqariga chiqib ketayotganida, tamburni olib ustiga she‘rli topishmoq yozdi:

Migratsiya sakkiz “chi” ga teng,

Qorin oshqozonday bir, “cun”ga teng.

Yuz terisi juda qalin bo‘lsa,

Kutilmaganda qiyinchiliklar boshga tusharkan.

Gao Shuang bu so‘zlarni yozib bo‘lib, jimgina ketdi. Bu to‘rt misra she‘r birinchidan tambur ustiga katta–kichik tartibida yozilgan, ikkinchidan yurak bo‘m-bo‘shligini bildiradi, uchinchidan ular chuqur ma‘noga ega. Bu to‘rt misra she‘r topishmoqdir va tambur ustiga yozilgan bo‘lib ular topishmoq tartibini yasaydi. Gao Shuangning she‘rli topishmog‘ining ma‘nosi unchalik chuqur yozilmagan. She‘rli topishmoqning ishorasi tamburga Sun Baoning xarakterini solishtirib hajviya bilan yomon odamligi tushuntirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq topishmoqlari ko‘p asrlar davomida yosh avlodning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasida muhim manba bo‘lib keldi. Ayniqsa, xalq donishmandligining qomusi bo‘lmish topishmoqlar xalq pedagogikasida katta o‘rin egallaydi.

Xalq og‘zaki janrlari orasida topishmoqlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Topishmoqlar shakl jihatdan ixcham bo‘lib, ularda fikr chuqur, aniq, ravshan ifodalangan bo‘ladi.

Xitoy tilidagi topishmoqlarda moddiy olam o‘zining g‘oyat rang-barangligi, turfa xil ko‘rinishi bilan aks etgan. Shuning uchun topishmoqlarda aniq predmet nomlari va shunday predmetlarning belgi-xususiyatini keng ma‘noda bildiruvchi so‘zlar nihoyatda keng ifodalangan. Topishmoqlar ko‘zda tutilgan mazmun yoki fikrni iloji boricha ixcham, ta‘sirchan, odatdagidan boshqacha, o‘ziga xos yashirin

ifodalashga intiladi. Undagi obrazlilik ham shunga xizmat qiladi. Shu bilan voqelikdagi narsa-hodisalarni qiyosan anglash, his etish, o‘rganishga keng imkon yaratadi. Mantiqiy, obrazli-poetik tafakkur rivoji uchun eng qulay va muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. “实用灯谜小辞典” 1989 年。
2. “谜语漫话” 1991 年。
3. “谜语小百科” 四川出版集团。2013 年。
4. 柳忠良 “中华灯谜学”。北京学苑出版社。2014年。
5. www.twirpax.com
6. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
7. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
8. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
9. Odil o'gli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
10. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
11. Odil o'g'li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.